

**RANGTASVIR MASHG'ULOTLARINI O'QITISHDA
RANG, TUS VA KOMPOZITSIYA TUSHUNCHALARINING NAZARIY-
METODIK ASOSLARI**

Sobitova Oydinxon Obitjon qizi

Andijon davlat pedagogika insitituti tasviriy san'at yo'nalishi magistranti

E-mail: sobitovaoydinxon@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tasviriy san'at ta'limida rang, tus va kompozitsiya tushunchalarini o'qitish ilimiy va metodik asoslari tahlil qilish yordamida o'rganiladi. Rangning psixologik ta'siri va ahamiyati, estetik tabiati, tusning yozug'lik, soya, kontrastlik munosabatlari orqali fazoviy tasavvurni ifodalashdagi o'rni, shuning bilan bir qatorda kompozitsiyaning tasvir elementlarini mazmunan va badiiy jihatdan umumiy uyg'unlashtirishning tamoyillari yoritiladi. Rangtasvir ta'limini o'rgatishda nazariy va amaliy jihatlarni uzviy bog'liqligi, naturadan kuzatish, tahlil qilishni o'rganish, fazoviy tasavvurdan foydalanish orqali ijodiy mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan metodlar samaraliy pedagogik yondashuv sifatida asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari rangtasvir mashg'ulotlarida badiiy tafakkurni rivojlantirish, estetik idrokni kengaytirishga yo'naltirilgan tamoyillarni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *Rangtasvir, tus, kompozitsiya, ijodiy tafakkur, zamonaviy pedagogik texnologiya, natura, badiiy idrok, rang nazaryasi, estetika, kontrastlik, ijodiy qobiliyat, metodik uslub.*

**ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЙ ЦВЕТА, ТОНА И
КОМПОЗИЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ЖИВОПИСИ**

Собитова Ойдинхон Обитжон Кызы

Магистрант направления «Изобразительное искусство»

Андижанского государственного педагогического института

e-mail: sobitovaoydinxon@gmail.com

Аннотация: *В статье рассматриваются научно-методические основы преподавания понятий цвета, тона и композиции в изобразительном образовании посредством анализа. Раскрываются психологическое воздействие и значение цвета, его эстетическая природа, роль цвета в выражении пространственного воображения через отношения светлоты, тени и контраста, а также принципы*

общей гармонизации элементов изображения композиции в содержательном и художественном плане. Обосновываются методы, направленные на развитие творческой самостоятельности через наблюдение и анализ с натуры, использование пространственного воображения в качестве эффективных педагогических подходов. Результаты исследования включают принципы, направленные на развитие художественного мышления и расширение эстетического восприятия на занятиях по живописи.

Ключевые слова: *Живопись, тон, композиция, творческое мышление, современная педагогическая технология, натура, художественное восприятие, теория цвета, эстетика, контраст, творческие способности, методический метод.*

THE THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF COLOR, TONE, AND COMPOSITION CONCEPTS IN THE TEACHING OF PAINTING

Sobitova Oydiskhan Obitjon's Daughter

Master's student in Fine Arts

Andijan State Pedagogical Institute

e-mail: sobitovaoydinxon@gmail.com

Abstract: *This article studies the scientific and methodological foundations of teaching the concepts of color, tone and composition in fine arts education through analysis. The psychological impact and significance of color, its aesthetic nature, the role of color in expressing spatial imagination through the relationships of lightness, shade, and contrast, as well as the principles of general harmonization of the image elements of the composition in terms of content and artistic aspects, are highlighted. The methods aimed at developing creative independence through observation and analysis from nature, and the use of spatial imagination are justified as effective pedagogical approaches. The results of the research include principles aimed at developing artistic thinking and expanding aesthetic perception in painting classes.*

Keywords: *Painting, tone, composition, creative thinking, modern pedagogical technology, nature, artistic perception, color theory, aesthetics, contrast, creative ability, methodological method*

KIRISH.

Tasviriy san'at ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tasviriy san'atning eng muhim yo'nalishlaridan biri rangtasvir bo'lib, o'quvchilar badiiy tafakkuri va kuzatuvchanligini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham ta'lim sohasida san'atning o'rni yuqori ekanligi ayniqsa Tasviriy san'atning muhim o'rin kasb etishini ko'p takidlaydilar. "O'zbekiston tasviriy va amaliy san'atini yanada rivojlantirish va jahon miqiyosida ommalashtirish, iste'dotli yosh rassomlarni qo'llab-quvvatlash, badiiy ta'lim sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, hamda yangi zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda kreativ loyihalarni amalga oshirish maqsadida qaror qilaman" (1), deya Prezidentimiz tasviriy va amaliy san'at sohasiga yanada yoshlarni, balki butun O'zbekistonni e'tiborini kuchatirdilar. Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar va suniy intellektdan foydalanish keng miqiyosda, butun jahon bo'ylab tarqalmoqda. Barcha sohalarda zamonaviy texnologiyalardan samaraliy ravishda foydalanilmoqda. Shuning uchun ham Prezidentimiz o'z qarorlarida tasviriy san'at sohasida ham zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yishni ilgari surdilar.

Prezidentimizning 2025-yil 1-iyul sanasidagi "Tasviriy san'atni rivojlantirish to'g'risida"gi qarorda: "O'zbekiston tasviriy va amaliy san'atini jahon miqiyosida ommalashtirish maqsadida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. 2026-2027-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida: Badiiy ko'rgazmalar direksiyasining ko'rgazmalar zali jahon standartlari asosida rekonstruksiya qilinsin va jihozlansin; Kamoliddin Begzod nomidagi Sharq miniatyura san'ati muzeyi hududida qoshimcha bino qurilsin va u yerda milliy usulda qog'oz tayyorlash bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etilsin; Yosh rassomlar markazida- yosh a'zolar uchun rassomlar ijodiy ustaxonalari faoliyati yo'lga qo'yilsin. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi ijtimoiy rivojlanish departamenti Rahbari O.Q. Abduraxmanov zimmasiga yuklansin" deyiladi (2). Prezidentimiz bu so'zlari bejis emas. Bizning buyuk tariximiz, go'zal sanatimiz bor. Uni rivojlantirib, yosh avlodga o'rgatish hamda, butun dunyoga tanitish bizning burchimizdir.

ADABYOTLAR TAHLILI:

Tasviriy san'at sohasi keng qamrovli bo'lib, ko'plab yo'nalishlarga bo'linadi. Bulardan biri rangtasvirdir. Rangtasvir – Tasviriy san'atning eng muhim qismlaridan biri bo'lib, O'zbekiston va jahonning ko'plab rassomlari rangtasvir yo'nalishida ijod qilishgan. O'zbekistonda rangtasvir bir san'at turi bo'libgina qolmay, balki mamlakatning

boy madaniy-tarixiy me'rosi, qadiryati va zamonaviy ijodiy salohiyatining yorqin timsoli ham hisoblanadi. Ranglar visual idrokning eng oldingi bosqichi bo'lib; inson ongiga, psixologiyasiga o'z tasirini o'tkazadi. Psixolog Eva Heller g'oyalariga binon ; Ranglar-hissiyot va qaror qabul qilishga bevosita ta'sir qiladi,

✓ Ko'k-insonlarda eng ko'p yoqadigon rang, tinchlik, ishonch va xavfsizlik tuyg'sini beradi

- ✓ Qizil-energiya, xavf, extiros va tezkor qarorlar bilan bog'liq
- ✓ Yashil-tabiati, osoyishtalik, muvozanat belgisi
- ✓ Sariq-quvonch, optimizim, lekin haddan ortiq bo'lsa asabiylik keltirishi mumkin
- ✓ Oq-poklik, yangilanish
- ✓ Qora- kuch, jiddiyat, bazan qayg'yu
- ✓ Binafsha-ijodkorlik, sezgirlik, ruhiy holat bilan bog'liq(3).

Rassom va olim Wassily Kandinsky "Ranglar musiqadagi tovushlar kabi ruhga bevosita ta'sir qiladi" deydi. Uning fikricha;

- ✓ Ko'k- chuqur ruhiylik
- ✓ Sariq- faol, shovqinli
- ✓ Qizil- issiq va kuchli
- ✓ Oq- cheksizlik
- ✓ Qora- yo'qlik, ma'nolarni bildiradi (4).

Shayxul islom Ibn Taymiyaning rivoyat qilishicha-Islom dini Payg'ambari Muhammad(sav) kiyimlaridagi ayniqsa bosh kiyimlari (salla) ning ranglariga alohida etibor qaratganlar. Unga ko'ra Payg'ambar Muhammad(sav) besh xil rangli salla o'raganlar;

- ✓ Qora-taziya ma'rosimlarida
- ✓ Moviy osmon rang-dushman ustidan g'alaba qozonganda
- ✓ Qizil-jangda
- ✓ Oq-masjidda, ibodat vaqtida
- ✓ Sariq-bemor insonni ko'rgani borganlarida(5).

Ushbu malumotlar ranglarni inson psixologiyasigasi, ruhiyati, kayfiyatiga tasiri kuchli ekanligi isbotlaydi. Ranglarning turlicha bo'lishi odamlarning psixologiyasiga turlicha tasir o'tkazadi. Ya'ni och ranglar- quvonch energiya harakat beradi, to'q ranglar esa- sokinlik, jiddiylikni uyg'otadi. Shuning uchun ham turli bayram, tadbir va marosimlarda yorqin rangli bezaklardan foydalaniladi.

TADQIQOT METODLARI

Ranglar tabiatni yorug'lik va ularning to'liq uzunliklariga asoslanadi. Pedagogik nuqtai nazardan rangni quyidagi tartibda o'rganiladi;

- ✓ Xromatik va axromatik ranglar;

- ✓ Ranglar doirasi, ranglarni bog'likligi;
- ✓ Asosiy va hosila ranglarning o'zaro munosabati;
- ✓ Rang kontrasti, mutanosibligi va psixologik tasiri.

Axromatik ranglar xromatik ranglardan farqi-bu ranglar tanlamay yutadi va qaytaradi. Axromatik ranglardan boshqa barcha ranglar xromatik ranglarga kiradi.

Abu rayhon Beruniyning "Kitob al javohir-ma'rifat al Javohir" (mineralogiya) asarida; ranglarni 200 dan ortiq nomlarini sanab o'tgan va ranglarning kelib chiqishi to'g'risida yozib qoldirgan(6). Hozirgi kunda ham rangtasvir darslarida ushbu manbalardan metod sifatida foydalaniladi. Rangli tasvirlar o'quvchilarga ongni anglashda, ijodiy tafakkurni faollashtirishda yordam beradi.

Tasvirda shakilni to'g'ri va aniq ifodalashda tus asosiy ro'l o'ynaydi. Tus yorug'lik va soyaga asoslanadi va predmetni;

- ✓ Fazoviy joylashuvini
- ✓ Shakil massasini
- ✓ Hajmini
- ✓ Sirt xossalarini, aniqroq ko'rsatadi(7).

Tasviriy san'at darslarida tusni yaxshi o'rganmagan o'quvchi rasmda shakilni tog'ri hajmda tasvirlay olmaydi. Pedagogik metodlarning quyidagilari muhimdir;

- ✓ Naturadan geometrik shakillardan foydalanib tusni tahlil qilish
- ✓ Yorug'lik manbani almashtirib soyani solishtirish
- ✓ Turli chiziqlar, pastdan yuqoriga, yuqoridan pasga turli chiziqlar orqali tahlil qilish.

Bundan tashqari rangtasvirda kompozitsiyaning o'z o'rnini bo'lib u ranglarni tog'ri tanlay olish, mavzuning mukammal yoritilganligi, tasvir mavzusiga tanlangan ranglarni mos kelishi ham eng muhim jihatlardandir.

Kompozitsiya tasvir elementlarini to'g'ri joylashtirish hamda ular o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlashdir. Kompozitsiya mashg'ulotlari o'quvchilar tafakkurini rivojlantiradi va badiiy muammolarni hal qilishda qanday to'g'ri rang tus tanlash kerakligini bilishga yo'naltiradi. Asosiy bosqichlari;

- ✓ Mavzu tanlash
- ✓ Eskizlar tayorlash
- ✓ Syujet qurish
- ✓ Asosiy kompozitsion markazni aniqlash
- ✓ Mavzuga mos ranglarni tanlash, metodik jihatdan ketma-ket qo'llanishi kerak(8).

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Malumki tasviriy san'atning barcha turlarida rang muhim rol o'ynaydi. Har bir narsa hodisa tasvir etilar ekan, uni aslidek qilib aks ettirish uchun rang muhim hisoblanadi.

Buni ko'plab rassomlar, san'at nazaryotchilari amalyotchilar va olimlar takidlab keladilar. Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o'rgangan bo'sa, nemis shoiri va san'atshunos I.V.Gyoten ko'proq ranglarni kishi organizimiga tasiri qiziqtirgan. XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgals rangshunoslik nazaryasida muhim yangilik yaratgan. Ko'p yillik tajribalari asosida xromatik ranglarni uchta asosiy alomati-rang toni (nomi), rangning och to'qligi va to'yinganligi asosida turkmlash kerakligi ko'rsatgan (9). Tasvirda ranglarni och to'qligini aniq bildirish uchun ko'proq kuzatish va naturadan chizish muhim ahamyat kasb etadi. O'quvchilar naturadan tasvir ishlaganda yorug'lik manbayini o'zgartirib kuzatish, yorug'likni turli taraflardan tushirib, soy va refleksini o'zgarishini kuzatish orqali naturadagi tusni qay darajada ekanligini, ranglarni bir-biriga mutanosib ekanligini o'rganadilar. Mashhur rassom Leonardo da Vinchi "Rassomlik haqida tarkat" asarida; "Rang- ko'rishning asosidir" deydi. Yani ranglar kishining ichi kechinmalarini aks ettiradi, ruhiy holatiga bevosida tasir o'tkazadi. Rassomning fikricha; "Lampaning to'g'ri tushgan nuri ruhni yengillatadi, soyasi esa uni ogirlashtiradi", "Yorug'lik va rang uyg'un bo'lsa- odam o'zini hotirjam sezadi", "Ziddiyatli (kontrast) ranglar- insonni xushyor, faol holatga keltiradi" (10).

XULOSALAR

Bugunki kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tasviriy san'atga bo'lgan e'tiborlari, san'atni rivojlantirish to'g'risidagi qarorlari barcha ijod ahlini uyg'onishiga, ko'proq ijod qilishga, O'zbekiston san'atini butun jahonga yanada tanitishga undashga sabab bo'ladi. Prezidentimizning qarorlariga binoan - Badiiy akademiya 2026-yildan boshlab Badiiy akademiya davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar doirasida "Yangi O'zbekiston manzaralari", "Buyuk allomalar", "Zamon qahramonlari" kabi turkumdagi ijodiy asarlarni davlat buyurtmasi asosida yaratish tizimini yo'lga qo'yilsin (11), deyiladi. Barcha mashhur rassomlar, yosh ijodkorlar, hatto talabalar ham ushbu mavzular bo'yicha rangli kompozitsiyalar yaratishmoqda. Har qanday janrdagi tasvirni yaratishda rang tasvirning mukammal darajada o'rganilganligi muhim hisoblanadi. Buni ko'plab mashhur rassom va olimlar fikrlarida va nazaryalarida ko'rib chiqdik. Harqanday tasvirni yaratayotganda, ranglash bosqichida, ranglarni kompozitsiyaga mosligi, bir biriga uzviy bog'ligi, och to'q ranglarni qo'llanilishi, ranglar kontrastligi, reflekslarni aniq topilganligi va rang ritmlariga e'tibor qaratish lozim ekan. Rang, tus va kompozitsiya tasviriy san'at ta'limining asosiy nazariy katigoryalaridir. Ularni puxta o'rganish;

- ✓ Estetik didni rivojlantiradi
- ✓ Badiiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi
- ✓ Tasvirni texnik saviyasini oshiradi
- ✓ O'quvchilarni mustaqil bo'lishga tayorlaydi

✓ Fazoviy tafakkurni kengaytiradi, tasvirni mukammal bo‘lishiga yordam berdi. Metodik jihatdan kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv rangtasvirni o‘rgatish hamda o‘rganishni zamonaviy pedagogik talablarga moslashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 1-iyuldagi PQ-212-son qarori.
2. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025 -yil 1-iyuldagi PQ-212-son qarori.
3. Eva Heller (germanyalik psixolog va yozuvchi) “Wie farben wirken-Ranglar qanday ra’sir ko‘rsatadi” kitob: 1989-yil.
4. Wassily Kandinsky (rassom va olim) “Concering the Spiritual in Art-San’atdagi ruhoniylk haqida” 1911- yil.
5. Abdullayeb O‘ktamjon Ergashovich “Rangshunoslik” darslik , Toshkent-Innavatsion Ziya nashiryoti: 2022-yil.
6. Abdullayeb O‘ktamjon Ergashovich “Rangshunoslik” darslik , Toshkent-Innavatsion Ziya nashiryoti: 2022-yil.
7. Ubaydullayev S. “Rasmda yorug‘lik va tus qonuniyatlari” Namangan: 2020-yil
8. Abdullayev Sh. “Tasviriy san’at ta’limida innavatsion texnologiyalar” Farg‘ona: 2023-yil.
9. Shodiyeva Sadoqat Boboqulova “Rangtasvir” o‘quv qo‘llanma” Kamolot nashiryoti , Buxoro: 2022-yil.
10. Leonardo Davinchi “Treatise on Painting-Rassomlik haqida traktat” qo‘lyozma sifatida 1490-1519-yillarda yozilgan, 1956 yil A.P.McMahon tomonidan tarjima qilinib kitob holatida nashr qilingan.
11. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 1-iyuldagi PQ-212-son qarori.